

## Ozodbek Nazarbekov

### "Kimlar"

Visit "[Kimlar](#)" on [MotoLyrics.com](http://MotoLyrics.com)

Kulishimni sog'indi kimlar,  
So'lishimni sog'indi kimlar? (2x)  
Yonishimni kutganlar ham bor,  
Sinishimni sog'indi kimlar? (2x)  
Kulishimni sog'indi kimlar,  
So'lishimni sog'indi kimlar?  
Kulishimni sog'indi kimlar...

Do'stingman! -deb choh qazdilar, oh,  
Men u joyga sig'madim biroq! (2x)  
Goho ayol makriga uchdim,  
Goh ko'ngilning og'usin ichdim! (2x)  
Kulishimni sog'indi kimlar...

Egik boshim sog'indi kimlar,  
Ko'zda yoshim sog'indi kimlar? (2x)  
O'lishimni kutganlar ham bor,  
Bo'lishimni sog'indi kimlar? (2x)

Foniy dunyo havasidan kech,  
Yolg'onlarning hammasidan kech!  
Gul ayollar, ko'ngilxushliklar  
Tiriklayin go'ringga tiqar! (2x)

Oldindadir hali chin, hazil,  
Oldindadir hali yo'l, manzil!  
Aytishimni kutganlar ham bor,  
Qaytishimni sog'indi kimlar?

Kulishimni sog'indi kimlar,  
So'lishimni sog'indi kimlar? (2x)  
Yonishimni kutganlar ham bor,  
Sinishimni sog'indi kimlar? (2x)  
Kulishimni sog'indi kimlar,  
So'lishimni sog'indi kimlar?  
Kulishimni sog'indi kimlar...

Visit [Ozodbek Nazarbekov](#) page on MotoLyrics.com, to get more lyrics and videos.

---

[MotoLyrics.com](#) | Lyrics, music videos, artist biographies, releases and more.